

307-C guruhi
Saidov Suxrob

**Stomatologik profilaktikada fluor saqlovchi
preparatlar**

Tish va Ftor

- **Tish qattik to'qimalarida ayrim xollarda kechadigan patologik o'zgarishlar bilan ftor elementi o'rtasida bog'lanish borligi tishlar va suyaklar flyurozi xastaligini o'rganish paytida kutilmaganda aniqlangan (Smit, 1931). Keyinchalik qilingan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, ftor preparati organizmga suv orqali kiritilsa karies kasalligining oldi olinishi mumkin ekan.**
- **Ayniqsa, ftor saqlovchi preparatlar tish emali shakllanayotgan paytda organizmda kerakli miqdorda, talab darajasida etarli bo'lsa emal kristallarining xosil bo'lishi nixoyatda yaxshi kechar ekan.**

Ftor yetishmovchiligi

- Ma'lumki tish emalining oxirgi shakllanishi va minerallarga to'yinib oxaklanish jarayoni tishlar chiqqandan so'ng ogiz bo'shlig'ida davom etadi. Shuni nazarda tutgan xolda ftor yetishmovchiliklari mavjud bo'lgan joylarda, ftor organizmga endogen yoki ekzogen (maxalliy) usulda kiritilsa, emalning tashqi kobig'i ftorapatitlar xosil bo'lishi xisobiga blyashkalar xosil qiluvchi kislotalar ta'siriga chidamli bo'ladi. Bundan tashqari ftorning maxalliy qullanilishi blyashka xosil qiluvchi mikroorganizmlarni ko'payishini to'xtatadi.

Ftorning kariesga ta`siri

- Ftorning karies jarayoniga qarshi ta`sir kuchi anchadan buyon olimlarga ma`lum bo`lsa xam uning ta`sir mexanizmini tushuntirish anchagina tortishuvlarga sabab bo`lmoqda. Bugungi kunda ftor birikmalarining kariesga qarshi ta`sir mexanizmini tushuntiruvchi qator gipotezalar-teoriyalar mavjuddir:

1-gipoteza

- TISH EMALINING ETILISH (OXAKLANISH) DAVRIDA GIDROKSILAPATIT TARKIBIDAGI KARBONAT KOLDIG`INI FTOR BILAN ALMASHINUVI GIDROKSILAPATITNI FTORAPATITGA AYLANTIRADI. FTORAPATIT KISLOTALAR VA MIKROBLAR TA`SIRIGA JUDA CHIDAMLI BO`LISHI EMAL KOBIGINI KARIESGA NISBATAN TURGUNLIGINI BIR MUNCHA OSHIRADI. (DMITRIEV I.M., 1974)

2-gipoteza

- Ftoridlarni ko'llash natijasida emalda kislotalar ta'sirida kiyin eriydigan kalsiy, ftor va fosfor saqlovchi birikmalar xosil bo'lar ekan. Bu birikmalar emal remineralizatsiyasida faol ishtirok etadi. Shu bilan birgalikda ftorning o'zgina miqdori xam gidroksilapatit kristallanishini tezlashtiradi. Bularning barchasi emalning turg'unligini oshiradi (Fedorov Yu.A. 1974);

3-gipoteza

- Ftor moddasi bakteriyasi mikroorganizmlarning ogiz bo'shlig'idagi moddalar almashuvi jarayonini buzadi va shu yo'l bilan tish blyashkalari xosil bo'lishiga to'skinlik kiladi. Natijada kislota xosil kiluvchi mikroorganizmlar ko'paya olmay ular soni keskin kamayib ketadi. Shu bilan birgalikda ftor so'lak tarkibidagi fermentlar faolligini pasaytiradi. Umuman olganda ftor ta'sirida mikroorganizmlar, tish blyashkasi va ular faoliyati natijasida xosil buladigan maxsulotlar tish emaliga nisbatan salbiy ta'sirini susaytiradi va shu yo'l bilan karies jarayonini oldini oladi (Sapogovski T.I., Fedorov Yu.A., 1973);

4-gipoteza

- **Ftor yodga nisbatan kimyoviy aktivligi yuqori mikroelement bo'lganligi uchun organizmga endogen va ekzogen yo'llar bilan tushgandan so'ng qalqonsimon bez faoliyatini o'zgartiradi, tish to'qimalariga bevosita va bilvosita (tireoid gormonlar orqali) ta'sir etib mineralizatsiya jarayonini faollashtiradi. (Fedorov Yu.A., 1972,1973);**

Ishlatish usullari

- **Bugungi kunda karies profilaktikasi maqsadida ftorli birikmalarning ishlatilishi ikki asosiy yul bilan amalga oshiriladi:**
- **1) endogen usulida - ftor organizmga suv, tuz, sut maxsulotlari, tomchilab, yoki tabletkalar tarzida kiritiladi;**
- **2) ekzogen usulida - tishlar emal kavatiga eritmalar, gellar, tish pastasi va laklar sifatida surish, surtish yo'llari bilan kiritiladi.**

Qo`llanilishi

- Ftor birikmalari maxaliy usulda tish emaliga surtilsa ularning so`lakda erishi natijasida xosil bo`lgan erkin ftor ioni emal to`kimasiga va shillik pardaga so`rilib organizm endogen muxitiga o`tadi. Endogen usulda kiritilgan ftor o`z navbatida qon orqali aylanib so`lak bezlarda, assimilyastiya qilinib, hosil bo`lgan so`lak tarkibida tish emal qavatini maxaliy yuvib turadi.
- Profilaktika maqsadida bir vaqtning o`zida sistemaga (endogen) kiruvchi ikki xil usullardan foydalanish maqsadga muvofik hisoblanmaydi. Mazkur usullardan birini maxaliy usul bilan almashib amalga oshirish yaxshi natijalar beradi va profilaktika tadbirining samaradorligi yaqqol oshadi.

Endogen usul

- **Organizmga ftor kiritishning endogen usulini tanlashda anik, ko'rsatmalar bo'lishi mart. Shulardan eng asosiylari kuyidagilardir:**
- **1. Aholi o`rtasida kariesni keng tarqalganligi;**
- **2. Ichimlik suvida ftor miqdorining ancha pastligi (meyorda mo'ljallangan dozaning yarmi va undan past);**
- **3. Qo'shimcha ftor kiritish manbalarining yo'qligi;**
- **4. Sovuq iqlim mintaqalarida yashash.**

Ftor muvozanati

- **Ftor birikmalarining endogen yo'li bilan organizmga kiritilishi doimo nazorat va xushyorlik tadbirlarini talab qiladi.**
- **Shuning uchun ftorni organizmga kirishini, uning miqdorini ishonchli nazorat qiladigan usullarni ishlab chikish, bu usullar kishilar organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi va atrof muxitni ifloslantirmasligini kafolatlasa bugungi zamon talabiga javob bergan bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birgalikda organizmning ftor elementiga nisbatan sutkalik talab darajasini bilish va karies profilaktikasida uni inobatga olish ishlab chiqilgan usullarning asosini tashkil qilishi lozim.**
- **Shundan kelib chiqib, avvalam bor, ftorning organizmdan siydik orqali ajralishining sutkalik miqdorini aniqlash va shunga asoslanib organizmning ftorga nisbatan talabini xisoblab chiqish tavsiya qilingan.**

Yoshga bog`liqliklar

- Ko'pgina tajribalarda shu isbotlanganki, 15 yoshgacha bo'lgan insonlar siydik orqali organizmga kirgan ftor moddasining 50% ni ajratib chiqarar ekan; 16-19 yoshda -55% ni va kattalar yoshida bu ko'rsatkich 60% ni tashkil kiladi.
- Shu, nazarda tutgan xolda organizmning ftorga nisbatan talab darajasini miqdor jixatdan xisoblab chiqish uchun siydik bilan ajralib chiqqan ftor miqdorini 15 yoshlilar uchun 2,0 koeffistientga; 16-19 yoshlilar uchun 1,8 koeffistientga; 20 va undan katta yoshdakilar uchun 1,66 ga ko'paytirish lozim.

Ftorlashtirish

- Karies profilaktikasida ichimlik suvini ftorlashning iloji bo'lmagan taqdirda bolalarga ftor birikmalari tutuvchi tabletkalar ichirish alternativ usul hisoblanadi. Bunday tabletkalarning xar birida 1mg natriy ftoridi bo'ladi. Agarda to'g'ri uzluksiz ravishda ko'rsatilgan miqdorda tabletkalardan foydalanilsa, organizmdagi ftor yetishmovchiligi tanqisligini oldini olish mumkin bo'ladi.
- Ftorli tabletkalar tishlar rivojlanib shakllanayotgan davrda berilsa samarali bo'ladi.
- Mazkur tabletkalarni yil davomida 250 kun 2 yoshdan 15 yoshgacha ichish tavsiya qilinadi. Ana shundagina ularning samarasini ftorlangan ichimlik suviga tenglashtirish mumkin.
- Yuqori profilaktik samara olish uchun ota-onalar bolalarning tabletkalarni uz vaqtida ichib turishini nazorat ostiga olmoqlari lozim. Shu bilan birgalikda bog'cha va maktablarda ham tabletkalarni uzluksiz o'z vaqtida berish tartibli ravishda amalga oshirilishi shart.

- **Profilaktika maksadida og`izni, tishlarni fluorli eritmalar bilan chayish bolalarda birinchi doimiy tish chikkandan so`ng tavsiya kilinadi. Bu usul oddiy, sodda kam xarajatli va yaxshi samara beradigan muolajadir.**
- **Izlanishlar shuni ko`rsatdiki 6 yashar bolalarda ogiz chayish boshlangandan so`ng 3 yil o`tgach karies jarayonining jadalligi 45%gacha pasayar ekan. Tishlarni fluor tutuvchi eritmalar bilan chayish tishlarning silliq va proksimal satxlariga juda yaxshi ta`sir ko`rsatadi, bunda tishlarni plombalatishga bo`lgan muxtojlik 70% ga kamayadi. Eritmalar bilan chayish samarasi 2-3 yil davom etadi.**

• **E`TIBORINGIZ UCHUN
RAXMAT**